



ZIGMUND FREYDNING FALSAFASIDA ONG MASALASI

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrası o'qituvchisi

Xolova Umida Umedovna

Buxoro Davlat Universiteti 5-1-fals 23 – guruh talabasi

Jumaeva Mehribon

Annotasiya. Ushbu maqolada Zigmund Freydning falsafasida ong tushunchasi, uning mohiyati, psixologik taxlil natijalari, inson ruhiyati modeli va ongsizlik tushunchasining mazmuni haqida ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, kelgusida ushbu ong tushunchasini ilmiy asoslash muhim deb topildi.

Kalit so'zlar: Ong masalasi, psixoanaliz, ong osti, ruhiyat, id, ego, super ego, men tushunchasi, insoniyat, instinkt.

Kirish. Zigmund Freyd (Froyd deb ham yuritiladi; nem. Sigmund Freud, 1856 yil 6 may, Frayberg, Avstriya imperiyasi — 1939 yil 23 sentyabr, London) — avstriyalik psixoanalitik, psixiatr va nevrolog. U Moraviyadagi kichik Frayberg shahrida (o'sha davrda Avstriyaning provinsiyasi) tavallud topgan. 1873 yilda Vena universitetining tibbiyot fakul'tetiga o'qishga qabul qilingan. Ta'lim va ilmiy faoliyati davomida Vena shahridagi terapevtik hamda psixiatriya klinikalarida, shuningdek Parijda Sharko, Nansida Bernxaym qo'l ostida ishlagan. 1881 yilda tibbiyot fanlari doktori darajasini olgan. Yozef Breyer bilan hamkorlikda nevrozlarni davolashning katartik usulini ishlab chiqqan. 1895 yilda ularning «Isteriyalarni tadqiq etish» nomli mashhur asari nashr etilgan bo'lib, aynan shu asardan psixoanaliz tarixi boshlanadi. 1902 yildan e'tiboran Vena universiteti professori sifatida faoliyat yuritgan.

Freyd qirq yildan ortiq umrini psixoanaliz nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga bag'ishlagan. Uning eng muhim asarlari quyidagilar: «Tush ta'biri» (1899), «Kundalik hayot psixopatologiyasi» (1901), «Totem va tabu» (1913), «Psixoanalizga kirish ma'ruzalari» (1917), «Ommaviy psixologiya va inson „Men“ining tahlili» (1921), «„Men“ va „U“» (1923), «Bir xayolning kelajagi» (1927), «Madaniyatdagi norozilik» (1930) va boshqalar. 1930 yilda u Gyote mukofoti bilan taqdirlangan, 1936 yilda esa Londonning Qirollik ilmiy jamiyatining xorijiy a'zosi etib saylangan. Freyd ham olim, ham bashoratchi, ham yangi ilmiy yo'nalish negizini yaratgan muhim shaxs sifatida e'tirof etiladi. Inson ongidagi ongsizlik (bessoznatel'noe) tushunchasi aynan uning nomi bilan chambarchas bog'liq. Uning nazariyasi zamonaviy fanning ko'plab sohalarini boyitdi va yangi ilmiy qarashlar uchun asos bo'lib xizmat qildi.



Zigmunt Freydning bir nechta mashhur kitoblariga "[Psixoanalizga kirish](#)"¹, "[O'zini tahlil qilish kitobi](#)"² va "[Tushlarning talqini](#)"³ kiradi. Uning asarlari odam ruhiyatining chuqur tushunchalarini va inson xulq-atvorining psixoanalitik nazariyalarini o'rganadi. "Psixoanalizga kirish": Freydning g'oyalari bilan tanishish uchun yaxshi boshlang'ich kitobdir. "O'zini tahlil qilish kitobi": Bu kitobda shaxsiy tahlil jarayonining usullari va tamoyillari tushuntiriladi. "Tushlarning talqini": Ushbu klassik asar tushlar psixoanalizidagi muhim roli va ularni talqin qilish usullarini tahlil qiladi. Freydning boshqa ko'plab asarlari ham mavjud bo'lib, ular odam ruhiyatining turli jihatlarini, jumladan, ongsiz holat, hissiyotlar, jinsiy rivojlanish va ijtimoiy xulq-atvor kabi mavzularni yoritib beradi⁴.

Zigmund Freyd yoshligidanoq dunyoni o'zgartirish, aql va ma'rifatning zafar qozonishi, shuhrat qo'rsisiga ko'tarilishni orzu qilgan. Darhaqiqat, o'tgan asrning ijodkorlari, ilm-fan arboblari va oddiy kishilari ham zamonaviy ta'sir ostida Freydning insoniy intilishlar va xatti-harakatlarga oid qarashlariga qizg'in qiziqish bilan yondashdilar; uning izidan borib tushlarni tahlil qildilar, gipnoz usullarini o'rgandilar, nevroz va qo'rquvlarning mohiyatini anglashga intildilar — bu hayotda bo'lsin, yoki san'atda. XX asr psixologiyasi, tibbiyoti, sosiologiyasi, antropologiyasi va adabiyoti Freydizm g'oyalari bilan chuqur singdirildi. Biror boshqa olim jamiyatga bunchalik kuchli ta'sir o'tkaza olmagan. Freyd psixoanaliz nazariyasi va edip kompleksi g'oyasining asoschisi sifatida ongsizlik tabiati, jinsiy instinktning ruhiyatga ta'siri, «Men» va «U» o'rtasidagi muvozanat haqida yangi va kutilmagan talqinlarni ilgari surdi. Shuningdek, u ommaviy guruhlar individni qanday o'zgartishi, individ esa o'z navbatida to'ppa ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsata oldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zigmund Freyd ta'limotining tarafdorlari ham, tanqidchilari ham ko'p bo'lgan. Uning eng yaqin safdoshlari va shogirdlari bo'lmish Alfred Adler va Karl Gustav Yung uning ta'limotini avvaliga qo'llab-quvvatlashdi, keyinchalik undan qisman voz kechishdi. Ular o'zlarining ta'limotini yaratishdi: A. Adler individual psixologiya, K.G. Yung esa analitik psixologiya ta'limotini. Bu olimlar Z. Freydni tanqid qilishsa-da, aslida ular tanlagan yo'nalish psixoanalizning davomi edi.

A. Adler fanga «yetishmovchilik hissi» degan tushunchani kiritdi. Uning fikricha, bu tuyg'u tabiiy va tug'ma bo'lib, har birimiz uchun xos va shaxs rivojlanishida katta

¹Z.Freyd. Psixoanalizning asosiy tushunchalari, – Toshkent, 2007. – 88–104-betlar.

²Z.Freyd. [O'zini tahlil qilish kitobi](#), (1921)

³ Z.Freyd. Tushlar va ongsizlik nazariyasiga oid fikrlar, – Moskva: AST, 2004. – 45–62-betlar.

⁴ ©Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019., 494b.



ahamiyatga ega. A.Adler fikriga ko'ra, har bir inson umri mobaynida o'zidagi ushbu etishmovchilikdan qutulish uchun boshqalar ustidan hukmronlik qilishga, ularning faolligini bostirishga intilib yashaydi. Buning uchun u o'zidagi barcha imkoniyatlarni ishga soladi va jamiyatda o'z o'rnini topishga intiladi⁵. A. Adler bu jarayonni kompensatsiya yoki superkompensatsiya deb atadi. Superkompensatsiya – bu yetishmovchilik hissiga bo'lgan tug'ma reaksiyalarning ijtimoiy bir ko'rinishidir. Adlarning fikricha, ana shu tug'ma instinktlar odamni atrofdagilarga tajovuzkor qilib qo'yadi. Demak, odamda nevroz rivojlanishining oldini olish uchun undagi etishmovchilik hissini bartaraf etish zarur. Vaholanki, A.Adler ham o'z ta'limotida inson ruhiyati rivojlanishida instinktiv reaksiyalarga urg'u bergan.

K.G. Yung ta'limoti biroz boshqacha edi. U «jamoaa ongsizligi» degan tushunchani taklif etdi. Yung individual ongsizlik va jamoaa ongsizligi orasida aniq bir chegara chizig'ini o'tkazdi. Uning fikricha, jamoaa ongsizligi individual ongsizlikdan farqli o'laroq, avloddan avlodga uzatiladi va «Men» jamoaa ongsizligi ta'siri ostida rivojlanadi⁶. Yungning fikricha, individual ongsizlik odamning shaxsiy tajribasida aks etadi. Bu tajribalar, albatta, qachonlardir ongda aks etgan, lekin ongdan siqib chiqarilishi natijasida unut bo'lib ketgan. Jamoaa ongsizligi — bu umuminsoniy tajribalar bo'lib, har bir millat va elatlar uchun xos, u o'tmishimizning yashiringan xotira izlaridir. U mifologiyada, xalq dostonlarida, diniy qarashlarda aks etgan bo'lib, hozirgi zamon kishilarining ongida tush ko'rish orqali namoyon bo'lib turadi.

Erix Fromm shaxs rivojlanishida tug'ma omillar ahamiyatini, har bir odamdagi ruhiy kechinmalarni ijtimoiy muhitga sho'ng'ib ketganlik, deb bildi⁷. Demak, instinktlar shaxsni shakllantirmas ekan, balki shaxsning o'zi ularni belgilab beradi.

Karen Xorni ta'limotida ham ijtimoiy omillar ahamiyati yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Jamiyatga nisbatan munosabatiga qarab 3 toifa odam shakllanishini ko'rsatib o'tdi: 1) odamlarga intiluvchilar, ya'ni mehribonlik izlovchilar; 2) odamlardan yiroqlashuvchilar, ya'ni yolg'izlikka intiluvchilar; 3) odamlarga qarshi turuvchilar, ya'ni hukmronlikka intiluvchilar. Ushbu xususiyatlarning qay biri ustun kelishiga qarab 3 xil nevrotik shaxs shakllanadi: 1) itoatkor, qanday bo'lmasin, boshqalarning muhabbati va e'tiborini qozonishni istovchi; 2) jamiyatni yoqtirmay undan yiroqlashishga intiluvchi; 3) davlatparast va odamlar ustidan hukmronlikka intiluvchi. K. Xorni fikricha, bu reaksiyalarning barchasi insonni qoniqtirmaydi, xavotir hech qachon yo'qolmaydi, aksincha, borgan sari kuchayib, yangi va yangi

⁵ Adler A. Individual'naya psixologiya. – Moskva: Progress, 1997. – 33–49-betlar

⁶ Yung K.G. Analitik psixologiya. – Moskva: Akademicheskiiy proekt, 2005. – 57–70-betlar.

⁷ Fromm E., Inson va jamiyat. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 120–137-betlar.



kelishmovchiliklarni yuzaga keltiraveradi. Bu esa baribir odamda nevroz rivojlanishiga mezon yaratadi⁸. Shunday qilib, K. Xorning nevroz haqidagi ta'limotini quyidagicha sharhlash mumkin: nevroz kurtaklari bola tug'ilgandan so'nggi xavotirdan boshlanadi va adovatli dunyo bilan kurashib hayot kechiradi. Buning natijasida yuqorida qayd qilingan uchta himoya strategiyasi ishlab chiqiladi.

Demak, xulosa shuki, nevrozdan qutulish qiyin. Biz ushbu bobni pessimistik ruhda tugallash niyatimiz yo'q. Albatta, Freyd yaratgan psixoanaliz nazariyasi va undan keyingi ta'limotlar nevroz rivojlanishi sabablarini juda yaxshi ko'rsatib bergan va albatta bunga qarshi psixodinamik terapiya ham ishlab chiqilgan. Bugungi kunda psixoanaliz asosida yana yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Biz shu erda o'z kontseptsiyamizni ham ilgari surmoqchi edik. O'ylaymizki, bizning kontseptsiya nevroz profilaktikasi uchun ham, davosi uchun ham va og'ir asoratlarini to'xtatish uchun ham xizmat qiladi. Nevrozni yuzaga keltiruvchi qandaydir voqea ro'y bersa, "Shunday bo'lishi kerak edi", deb xitob qilish va shu holatga yana tushmaslik uchun "Shunday bo'lmasligi mumkin edi" deb xitob qilish zarur. Bu bizga nima beradi? Kattami, kichikmi ko'ngilsiz voqea ro'y berganida "shunday bo'lishi kerak edi", deb xitob qilinishi o'sha odam uchun vaziyatni to'g'ri baholash va uning ilk sabablarini anglash uchun yordam bersa, "shunday bo'lmasligi mumkin edi", deb xitob qilinishi, shu va shu kabi holatlarga yana tushmaslik uchun individual strategiya ishlab chiqishga yordam beradi. Biz ilgari surayotgan ushbu kontseptsiya nevrotik buzilishlar hali avj olib ketmasdan uni bartaraf etishga juda katta imkoniyat yaratib beradi va buning uchun psixoanalitik shart bo'lmasligi mumkin. Bunda bemorning o'zi psixoanalitik rolini o'taydi. Buning uchun ushbu ikkala iborani nafaqat xitob qilish, balki unga amal qilish ham kerak. Bu esa oson. Bir necha yillardan buyon biz o'zimiz ishlab chiqqan ushbu kontseptsiyani yuzlab bemorlarda qo'llaganmiz va deyarli har doim ijobiy natija olganmiz Bu kontseptsiya har qanday savolga javob topadi va har qanday jumboqning yechimini topib bera oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid tarixiy manbalar ustida ishlash, tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, xorijiy tildagi adabiyotlarni tarjima qilish uslublaridan foydalanildi.

Talqin va natijalar. Freyd yaratgan psixonaliz to'g'risidagi nazariya inson ruhini bir muz tog'iga qiyoslaydiki, go'yo uning ustki, ya'ni oltidan bir qismi ong bo'lsa, suv ostida ko'rinmay yotgan oltidan besh qismi ong osti, ya'ni ongsizlikdir. Psixoanaliz fani o'z oldiga ongdan yashirinib yotgan chuqur psixologik jarayonlarning sir-asrorini

⁸ Xorni K., Nevroz va shaxs rivojlanishi. – Moskva: Eksmo, 2002. – 90–105-betlar.



ochishni maqsad qilib qo'yadi va shu yo'l bilan nevrozni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganadi. Z.Freyd «yashirinib» yotgan psixologik jarayonlarni ongsiz jarayonlar deb atadi. Rus psixologlari bu holatni turli atamalar bilan ta'riflashadi: «bessoznatelnoe» (ongsizlik), «podsoznatelnoe» (ongostlilik), «podsoznanie» (ong osti). Ba'zi o'zbek psixologlari «ongostlilik» degan atamani ma'qul topishadi. Adabiyotshunoslar esa «shuur» so'zi ong ostini izohlaydi deb hisoblashadi. Shunday qilib, hanuzgacha fanda katta shov-shuvlarga sabab bo'lib kelayotgan va mohiyati to'laligacha o'rganilmagan ushbu noaniq psixologik jarayonlarning atamasi ham noaniq bo'lib qolmoqda.

Z. Freyd bo'yicha inson ruhiyati modeli aysbergga qiyoslangan. Uning suv ustida ko'rinib turgan 6/1 qismi ong bo'lsa, suv ostida ko'rinmay yotgan 6/5 qismi – bu ongsizlik. Z. Freyd ta'biri bilan aytganda, ongdan siqib chiqarilgan odamning tabiiy instinktlari ong ostida qo'nim topadi. Ongsizlik tug'ma xususiyat bo'lib, insonning barcha xatti-harakatlarini ifodalab turadi. Ongsizlikni psixoanaliz ta'limoti o'rganadi. Psixoanaliz ta'limoti yaratilishiga, asosan, nevroz kelib chiqishining asl mohiyatini izlash va bu kasallikni davolashda o'sha davrdagi mavjud psixoterapevtik usullar kam samara berishi turtki bo'lgan. Z. Freyd o'z kuzatuvlariga asoslanib, ruhiyatning yangi modelini yaratdi. Unga asosan, bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan 3 ta psixologik tuzilma mavjud. Bular – Id, Ego va Super-Ego. «Id» — bu instinktlar. U ongdan xolis. «Ego» — bu Men. Uning ongi bor. «Super-ego», ya'ni Super-men – bu odamni o'rab turgan muhit, jamiyat. U odamning xulq-atvorini «tepadan» nazorat qilib turadi. Bu tushunchalarning har biriga ta'rif berib chiqamiz. Z. Freydning fikricha, evolyutsiyaning dastlabki bosqichida o'zini himoya qilish va ovqat izlash instinkti odamning xulq-atvorini belgilab bergan. Shu bilan parallel holda yoki birozdan so'ng ularga seksual instinkt qo'shilgan. Bu instinktlarni Freyd «Id» deb atagan. «Id» ongda aks etmaydi. U ong ostida joylashgan, to'g'rirog'i, ong ostiga tiqishtirilgan. «Id» qoniqish printsiplariga asoslanib faoliyat ko'rsatadi. Bu erda jinsiy qoniqish alohida o'rin tutadi. Dastlab Freyd barcha instinktlar ichida seksual instinktga katta urg'u beradi va odamning xatti-harakatlarini seksual qoniqmaslik bilan bog'laydi. Uning fikricha, aynan ushbu instinkt odamning xulq-atvorini tug'ilganidan buyon boshqarib keladi. Z.Freyd qondirilmagan his-tuyg'u yoki jinsiy maylning ruhiy quvvati ong ostida to'planib boradi va o'z ifodasini topishga urinadi, deb fikr yuritadi. Shuning uchun ham uni panseksualizm da ayblashadi.

«Id» doimo «Men» va «Super-men» bilan murosasiz jang olib boradi, chunki ular «Id»ni tinimsiz nazorat qilishga intiladi. «Id» kuchli energiyaga ega bo'lsa-da, «Men» uni ong ostidan suzib chiqishiga yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun ham «Id»



Learning and Sustainable Innovation

tajovuzkordir. «Men» nazoratni to'la qo'lga olgunga qadar instinktlar go'yoki odamning hayot tarzini, ya'ni xulq-atvorini belgilab bergan. «Men» rivojlanishi odamning hayot tarzini o'zgartirib yubordi va uning xulq-atvorini nazorat ostiga oldi. O'sha paytda ham, hozirda ham psixoanalitiklar «Id» – bu odamning hayot tarzini belgilab beruvchi asosiy manba deb hisoblashadi. «Id» o'zgarmas, «Men» esa o'zgarib, rivojlanib boradi. Odam boshqa jonzotlardan aql-zakovat, ya'ni ongning borligi bilan farq qiladi.

Demak, ong – bu «Men» demakdir. Agar odam faqat «Id»ga bo'ysunib yashaganida edi, uning hayot tarzi hayvonlarnikiga o'xshab qolardi. Vaholanki, odam faoliyati ongli jarayondir va u o'z xatti-harakatlarida ham, asosan ongga tayanadi. Psixoanalitiklar odamni, aniqrog'i, uning ruhini tirik hujayraga o'xshatishadi. Bunda hujayraning tashqi pardasi «Men» bo'lsa, uning ichki tarkibi – «Id». Hujayraning ichida moddalar almashinuvi natijasida katta energiya to'planadi va kuchli energiyaga ega bo'lgan «Id» tashqariga yorib chiqqisi keladi. Bunga esa hujayraning tashqi pardasi, ya'ni «Men» yo'l qo'ymaydi. Xo'sh unda «Super-men» nima? Ma'lumki, hujayralar to'plami to'qimani, to'qimalar a'zolari, a'zolar esa organizmni tashkil qiladi. Demak, «Super-men» – barcha «Men»lar yig'indisi. Hujayra organizmda hayot kechirgani kabi, organizm ham hujayrasiz yashay olmaydi. Organizm – bu «Super-men».

«Supermen» «Men» bilan birgalikda «Id»ni nazorat qiladi. Buning natijasida ular orasidagi ziddiyatlar kuchayadi. Z.Freydning fikriga ko'ra, nevrozning kelib chiqishiga «Super-men» va «Men» sababchi. Psixoanalitiklar nevrozni psixoterapevtik yo'l bilan davolashda aynan mana shu nazoratni kamaytirish yoki to'xtatishga va shu yo'l bilan «Id»ni ong doirasiga suzib chiqishiga yordam berishadi. Buning natijasida «Id» tajovuzkorligi pasayib, nevroz belgilari chekinadi. Z.Freyd «Men» va «Id» orasidagi munosabatlarni chavandoz bilan otning munosabatlariga qiyoslab ham tushuntirib bergan. Freydgacha A.Shopengauer xuddi shunday qiyoslashni iroda va tafakkur orasidagi munosabatlarning ta'riflash uchun ishlatgan edi. Chavandoz otni o'zi boshqarsa-da, faqat uning quvvati hisobiga harakatlanadi. Kerak paytda chavandoz o'zanni qattiq ushlab, otni to'xtatishi va o'zi xohlagan tomonga yo'naltira olishi zarur, aks holda u yiqilib qattiq jarohat oladi yoki halok bo'ladi. Ba'zi vaziyatlarda qachon to'xtash va qaysi tomonga yurish kerakligini chavandoz emas, balki otning o'zi tanlaydi. Masalan, chavandoz uxlab qoladi, charchaydi yoki kasallanadi. «Men» (chavandoz)ning ahvoli «Id» (ot)ning ahvoliga qaraganda ancha xavotirli. Chunki «Men» bir tomondan atrof-muhit, ya'ni tashqi olamning qonun-qoidalariga amal qilishi, ikkinchi tomondan kuchli ot («Id»)ni boshqarishi kerak. «Men» ham tashqi olam, ya'ni «Super-men»ning talablarini, ham «Id»ning ehtiyojlarini qondirish uchun



doim xavotirda yashaydi. Bu talablarni bajarish uchun «Men» doim sergak bo'lib turishi kerak. Bu talablar bajarilmasa, aybdorlik hissi aynan uning bo'yniga tushadi. Demak, «Men» doimo o'zini himoya qilish yo'llarini izlaydi. Z. Freyd nevrozning kelib chiqishini ushbu

ziddiyatli munosabatlardan izlagan. Oddiyroq qilib aytganda, psixoanalitik bilan yolg'iz qolgan mijoz o'zini erkin qo'yib, ko'zlarini yarim yumgan holda yotadi yoki bemalol o'tiradi va xayoliga kelgan barcha fikrlarini oqizmay-tomizmay so'zlab beradi. Bu erda birorta ham sir qolmasligi va bemor uyalmasligi kerak. Ma'noli so'zlarmi, ma'nosizmi, bemor ularni psixoanalitikka ochib tashlashi shart. Aks holda natija bo'lmaydi. Ana shundagina, Z. Freyd ta'biri bilan aytganda, ruhiy poklanish, ya'ni «katarsis» ro'y beradi va tuzalish jarayoni jadal kechadi. Z. Freydning fikricha, eng muhimi mazkur assotsiatsiyalar ong tomonidan boshqarilmasligi kerak va bemor fikrini erkin ifodalashi zarur. Ana shundagina ong ostiga qamalgan istak-xohishlar va ong tomonidan taqiqlangan ziddiyatli muammolar o'z yechimini topadi.

Demak:

Ong ..

Ong bu insoniyatni boshqa maxluqotlardan ajratib turuvchi eng muhim omildir. Insonyatning yurish turushi hatti- harakatini oylashi, fikirlashi jamiyki saloxiyatini ongi orqali bevosita boshqaradi. Insoniyatning ongsizlanib borishi yoxud ongini bema'ni narsalar ila band etishi bu o'zini halokatga boshlashi bilan barobardir. Bugungi dunyoning taraqqiyot sari yondashuviga ham ongning taraqqiy topishini rivojlanayotganidan yaqqol misol sifatida kòrish mumkin. Ong haqida turli olimlarning turlicha fikirlari dunyo qarashlari mavjud. Olimlar fikriga keladigan bòsak, Buyuk Freyd pishxologiyasi ong haqidagi va unig 3 ga bòlinishi tògrisidagi nazaryasiga men qòshilaman. Freyd ajoyib shifokor pishxolog olim. Men uning ishlarini uning pishxologiyaga bergan kiritgan yangiliklarini juda yuqori baholayman.

Fikrimcha ong bu insonning muvhum qismidir. Inson ongini aql vazifasida ham olsak ham bo'ladi. Ong insonda ham hayvonda ham mavjud deb bilaman. Ongsiz insonlar ya'nikim aqli zaif o'zini his qilmaydigan insonlardir. Ong bilan ruhiyat chambarchasdir. Ichki ong shakli qalb va ruhiyat. Tashqi ongni aql deb bilaman. Ong insonni boshqarmaydi deb hisoblayman. Aksincha ruh, ichki intuitiv, aql insonning ongini boshqaradi deb o'ylayman. Inson ongi, o'zini tanishini ichki ongi bilan bevosita bog'liq. Ongda inson hissiyotini va hayajonini ichki muhit deb aytsak bo'ladi. Misol uchun, inson xotiralari bilan yurganda, uning birdaniga stress olishi, hursandchiligi, yoxud yig'lashi, hammasi ong bilan bo'g'liq bo'lib, bular ong osti hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Freyd Z. Tushlar ta'biri (Tolkovanie snovideniy). – Moskva: AST, 2004. – 45–62-betlar.
- (2). Freyd Z. Psixoanalizga kirish ma'ruzalari. – Toshkent: Fan, 2007. – 88–104-betlar.
- (3). Freyd Z. «Men» va «U». – Moskva: Nauka, 1991. – 23–39-betlar.
- (4). Freyd Z. Totem va tabu. – Sankt-Peterburg: Piter, 2003. – 112–128-betlar.
- (5). Yung K.G., Analitik psixologiya. – Moskva: Akademicheskij proekt, 2005. – 57–70-betlar.
- (6). Adler A. Individual'naya psixologiya. – Moskva: Progress, 1997. – 33–49-betlar.
- (7). Xorni K., Nevroz va shaxs rivojlanishi. – Moskva: Eksmo, 2002. – 90–105-betlar.
- (8). Fromm E., Inson va jamiyat. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 120–137-betlar.
- (9). Z. Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 3-nashr., T.; 2019., 494b.